

BUYUK IPAK YO‘LINING UMUMIY TAVSIFI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.

Qudratov Davlatbek Turdibekovich
GulDU “Tarix” kafedrası dotsenti v.b

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Buyuk Ipak yo‘lining shakllanishi, asosiy yo‘nalishlari, tarixiy bosqichlari hamda u orqali amalga oshgan savdo, madaniy va siyosiy aloqalar yoritiladi. Shuningdek, Ipak yo‘lining Markaziy Osiyo xalqlari taraqqiyotidagi o‘rni, xalqlarning o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada arxeologik manbalar, tarixiy hujjatlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida Buyuk Ipak yo‘lining jahon tarixidagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar. *Buyuk Ipak yo‘li, savdo yo‘llari, Markaziy Osiyo, madaniyatlararo almashinuv, tarixiy meros, xalqaro munosabatlar.*

Annotation. *This article explores the origins, main routes, and historical development stages of the Great Silk Road. It highlights the trade, cultural, and political interactions facilitated by the route and its significant role in the progress of Central Asian civilizations. The research also examines how the Silk Road promoted intercultural dialogue and mutual influence among nations. Using archaeological findings, historical records, and modern scholarly sources, the article emphasizes the global historical importance of the Great Silk Road.*

Key words. *Great Silk Road, trade routes, Central Asia, intercultural exchange, historical heritage, international relations*

Ustrushona Markaziy Osiyoning tarixiy va madaniy merosga boy hududlaridan biri bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan. Bu hudud o‘zining strategik geografik joylashuvi tufayli Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazlardan biri sifatida ajralib turadi. Tarix davomida Ustrushona ko‘plab xalq va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo‘lib kelgan, bu esa mintaqaning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu qo‘llanma, Ustrushonaning tarixiy jarayonlardagi o‘rnini va Buyuk Ipak yo‘lidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Buyuk Ipak yo‘li nafaqat savdo yo‘li, balki xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida bilimlar, qadriyatlar va texnologiyalar almashinuvi uchun muhim ko‘prik bo‘lgan. Bu ulug‘ yo‘l o‘sha davrdagi global savdo tizimining markaziy qismi sifatida xizmat qilib, turli sivilizatsiyalarni bog‘lab turgan. Ustrushona esa bu yo‘lining chorrahasida joylashganligi sababli, turli xalq va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning muhim tugun

nuqtasi bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu qo‘llanma ana shu tarixiy kontekstda Ustrushonaning rivojlanishi, uning Buyuk Ipak yo‘lidagi savdo, siyosiy va madaniy jarayonlardagi rolini yoritadi.

Ustrushonaning tabiiy va geografik xususiyatlari uning mintaqaviy rivojlanishiga zamin yaratgan. Hududning sharqiy qismi tog‘lar va tog‘oldi hududlaridan iborat bo‘lsa, g‘arbiy qismi keng tekisliklardan tashkil topgan. Bu hudud nafaqat chorvachilik va dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan, balki Buyuk Ipak yo‘li savdo yo‘llari orqali mintaqaviy va xalqaro aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini bergan. Savdo aloqalari orqali karvonlar shakar, ipak, chinni buyumlar, ziravorlar va boshqa qimmatbaho mahsulotlarni olib o‘tgan. Ustrushonaning bu jarayonlardagi ishtiroki iqtisodiy va madaniy jihatdan mintaqaning gullab-yashnashiga olib kelgan.

Hududda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy jihatdan ham katta rivojlanish kuzatilgan. Ustrushona shaharlarida hunarmandchilik, savdo va madaniyat gullab-yashnagan. Karvonlar shunchaki savdo mahsulotlarini tashibgina qolmay, ular bilan birga bilim va innovatsiyalarni ham olib kelgan. Bu jarayon orqali mintaqada ilm-fan, san’at va adabiyot rivojlangan. Buddizm, zardushtiylilik va islom dinlari kabi e’tiqodlar Ustrushonada o‘z ta’sirini o‘tkazgan, bu esa madaniy boylikning shakllanishiga xizmat qilgan.

Mazkur qo‘llanmaning asosiy maqsadi – Ustrushonaning tarixiy o‘rnini va uning Buyuk Ipak yo‘lidagi ahamiyatini chuqur o‘rganishdir. Bu mintaqaning savdo aloqalari, siyosiy tuzilishi, madaniy merosi va arxeologik yodgorliklari o‘quvchilarga mintaqaning boy tarixi haqida batafsil tasavvur beradi. Qo‘llanmada Ustrushonaning nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro ahamiyatini ochib beruvchi dalillar, tarixiy manbalar va ilmiy izlanishlar keltiriladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va madaniy integratsiyasi jarayonida Ustrushonaning tarixiy merosini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Bu o‘tmishdagi xalqaro aloqalar tizimini tahlil qilish orqali zamonaviy global aloqalarning rivojlanishiga oid muhim saboqlar olishga imkon beradi. Ushbu qo‘llanma talabalarga o‘zlarining tarixiy bilimlarini kengaytirish, Buyuk Ipak yo‘li va uning hududiy qirralarini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Ustrushona tarixini o‘rganish Markaziy Osiyo tarixini chuqurroq tadqiq etish, xalqaro savdo va madaniy almashinuvning ildizlarini anglash imkonini beradi. Qo‘llanma nafaqat o‘tmishning mazmunini o‘rganishga qaratilgan, balki kelajak tadqiqotlari uchun ham mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Ustrushona Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan muhim mintaq sifatida Sharq va G‘arbni bog‘lovchi iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarda alohida o‘rin tutgan. Ushbu qo‘llanma orqali o‘quvchilar Ustrushonaning boy tarixi va madaniyati, uning xalqaro savdo tizimidagi o‘rni va rivojlanish omillarini chuqur anglab,

mintaqaning Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyatini kengroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Qadimgi savdo yo‘llaridan eng qadimgi yo‘llaridan biri Buyuk Ipak yo‘lidir. Buyuk Ipak yo‘li qadim va o‘rta asrlarda Sharq va G‘arb mamlakatlarini ilk bor o‘zaro bog‘lagan qit‘aloro karvon yo‘lidir. Tatqiqotchilarning fikriga qaraganda, er. avv. III asrning oxiri II asrlarda xalqaro ahamiyatga va aniq yo‘nalishga ega bo‘lgan savdo tranzit yo‘li shakllana boshladi. Buyuk Ipak yo‘li atamasi karvon yo‘lidagi qimmatbaho tovar Xitoy ipagi bilan bog‘liq. XIX asrning ikkinchi yarmida 1877-yilda nemis olimi Ferdinand Rixtgofer asarida «Ipak yo‘li» nomini berdi va keyinchalik butun dunyo tatqiqotchilari tomonidan «Buyuk ipak yo‘li» deb e‘tirof etildi. Ipak yo‘lining janubi-g‘arbiy tarmog‘i Taklamakon sahrosi orqali Xotanga, undan Yorkentga kelib, Pomir tog‘i orqali Vaxonga, undan Baqtriyaning bosh shahri Balxga kelgan. Balxda yo‘l yana uch tarmoqqa ajralib, g‘arbiy tarmog‘i Marvga, Janubiy tarmog‘i Hindistonga, shimoliy tarmog‘i Termiz orqali Darband, Nautak, Samarqandga qarab ketadi. Ipak yo‘lining shimoli-g‘arbiy tarmog‘i esa Dunxundan Bami, Kuchi, Turfan orqali Tarim vohasidan Qashqarga boradi. U yerdan Toshqo‘rg‘on orqali O‘zgan, O‘sh, Quva, Axsikent, Popga undan Asht dashti orqali Xo‘jand, Zomin, Jizzaxga, so‘ngra Samarqandda Nautak yo‘li bilan birlashadi. Yo‘l Samarqanddan G‘arbga Dobusiyaga, Malik cho‘l orqali Buxoro va Romitanga, undan Varaxsha orqali Boykent va Farg‘onaga borib, Amul shahriga o‘tadi. Amulda Marvdan Urganch tomon Amu bo‘ylab ketayotgan yo‘lga qo‘shilgan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshgan savdo aloqalari dunyoning turli qismlarida iqtisodiy rivojlanishga olib keldi. Xitoydan chiqadigan ipak, ziravorlar, shirinliklar, Hindistondan keladigan ba‘zi dori-darmonlar, Eronning qimmatbaho toshlari, O‘rta Osiyodan o‘tgan qimmatbaho matolar savdosi muhim o‘rin tutgan. Savdo tovarlarining almashinuvi bilan birga, yangi texnologiyalar, misol uchun, qog‘oz ishlab chiqarish, kompas, porloq metallurgiya va shuningdek, ilg‘or agrar texnologiyalar ham tarqalgan. Savdo yo‘llari orqali o‘tgan o‘zaro ta’sirlar faqat iqtisodiy sohalarida emas, balki madaniy va ilmiy sohalarida ham o‘z aksini topgan. Shunday qilib, Ipak yo‘li nafaqat tovar almashinuvini, balki xalqlar va millatlar o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lgan.

Buyuk Ipak yo‘lining Xitoydan O‘rta Osiyoga keluvchi yo‘nalishida dastlabki hudud sifatida Farg‘ona vodiysi muhim o‘rin tutgan edi. Ushbu hudud orqali o‘tgan tranzit savdo yo‘llari yo‘nalishlari bo‘yicha keyingi yillarda ko‘plab yangi ma’lumotlar paydo bo‘ldiki, ularning tahlillariga asoslanib Farg‘ona vodiysidagi yirik shaharlarning bu transmintaqaviy aloqa yo‘li yo‘nalishlarida tutgan o‘rni va ahamiyati hamda bu davr Farg‘ona davlatchiligi rivoji haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Marv shahri o‘rta asrlar davomida Buyuk

Ipak yo‘li chorahasida kesishgan eng muhim hayotiy nuqta bo‘lgan. Eng muhimi shundaki Ipak yo‘lining g‘arbdan keladigan savdo karvonlari ya‘ni Italiya, Ispaniya hamda O‘rtayer dengizi mamlakatlarining savdogarlari ham o‘z mollarini Tir, Damashq, Anatoliya, Bog‘dod orqali Parfiya davlati hududlari bo‘ylab yana O‘rta Osiyoning yirik savdo markazi Marvga olib kelar shu yerdan sharq tomon yo‘llarini davom ettiradilar. Marvning turli dinlari va turli madaniyatlar tutashgan joy bo‘lganligi alohida ahamiyatga ega. Buyuk Ipak yo‘li davlatlar va turli mintaqalar o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy jihatdan almashinuv yuz berishida asosiy vazifani bajargan. Harbiy kuch qudratga ega bo‘lgan davlatlar Ipak yo‘li ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatishdan manfaatdor bo‘lgan. Ushbu holatda turli davrlarda qudratli davlatlar o‘zaro raqobatga kirishganlar. Er. avv. VI-IV asrlarda Eron Ahamoniylari va er. avv. IV asrda esa Makedoniyalik Aleksandr, er. avv. II-I asrlarda Rim va Parfiya davlatlari o‘rtasida yo‘l nazorati borasida qattiq raqobat ketgan. Arab xalifaligi vujudga kelgunga qadar bu yo‘lda Eron va So‘g‘d savdogarlari yetakchilik rolini o‘ynaganlar. Arab xalifaligi kuchayib, ko‘plab hududlarni qo‘lga kiritgach, bu yo‘l arab savdogarlari tasarrufiga o‘tadi. Chingiziylar davrida Buyuk ipak yo‘lining nazorati butunlay ularning qo‘l ostida bo‘lgan.

Sohibqiron Amir Temur davrida Ipak yo‘li sarhadlarini yangidan kengayib katta miqyos kasb etib, yanada rivoj topadi. Buyuk Ipak yo‘lining shuhrati ayniqsa, XIV asrning ikkinchi yarmida va XV asrda, ya‘ni Amir Temur qudratli markazlashgan davlat barpo etish barobarida uning barcha hududlarida tinchlik va osoyishtalik o‘rnatdi. Amir Temur yirik shaharlarga savdo rastalari va bozorlar qurdirdi hamda savdo yo‘llarida karvonsaroylarni ko‘paytirdi. Ayniqsa Samarqand va Buxoroda bozor, chorsu, tim, toq, kappon kabi savdo-hunarmandchilik inshootlari qad rostladi. Samarqandning markaziy qismi bo‘ylab o‘tgan keng ko‘chaning ikki tomoniga savdo do‘konlari (rastasi) joylashtirilgan. Bozor savdo markazi bo‘lishi bilan birga hunarmandchilik va ishlab chiqarish joyi vazifasini bajargan. Shuningdek bozorlarda qo‘lyozma kitoblar, yozuv qog‘ozi sotilgan, ariza yoki maktub yozuvchi mirzalar ham bo‘lgan. Bozorlarda adabiyot, she‘riyat, ilm-fan haqida suhbatlar tashkil etilgan hamda farmonlar e‘lon qilingan va aybdorlar jazolangan. Temuriylar davrida ushbu yo‘l faoliyati har tomonlama mustahkamlandi. Temuriylar davlati juda ko‘plab davlatlar: Xitoy, Tibet, Hindiston, Eron, Rossiya, Volgabo‘yi, Sibir bilan muntazam savdo-sotiq aloqalarini olib borgan. Temuriylarining elchilik aloqalari turli davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishga muhim ahamiyat kasb etgan. Temuriylar davrida karvon yo‘llarida elchilar, choparlar va savdo karvonlari uchun dam olishi, otlarni almashtirish joylari – yomlar, rabotlar, sardobalar qurilgan. XIV-XV asr oxirlarida Movarounnahr ko‘p mamlakatlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, ba‘zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan karvon yo‘llari bilan bog‘langan edi. Bu yo‘llar xalq turmush tarzi, diniy, iqtisodiy, manaviy

va moddiy madaniyat jihatidan bir-biridan farqlanuvchi mamlakatlarning o‘zaro aloqasini rivojlantirishga imkon yaratdi. Hukmdorlarning o‘zaro bir-birlariga elchilar yuborishlari, sovg‘a-salom in‘om etishlari an‘anaga aylandi. Sharq va g‘arb madaniyating bir-biriga ta‘siri kuchaydi. O‘sha davrdagi ko‘plab madaniy o‘xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keladi. O‘rta Osiyo shaharlarning ko‘payishi, hunarmandchilik va ilm-fanning taraqqiy etishiga olib keldi.

Buyuk karvon yo‘li Yevrosiyo xalqlari tarixida muhim o‘rin tutib, mintaqaning har tomonlama taraqqiy etishida asosiy omil bo‘lgan. Davlatlar o‘rtasida qizg‘in savdo aloqalarini amalga oshirilgan. Ushbu omil har bir mamlakatning gullab-yashnashiga sabab bo‘lgan. O‘rta Osiyo hududlarida sug‘orma dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik, chorvachilik, tog‘-kon ishlari ancha rivoj topgan. O‘rta Osiyoda so‘g‘d oltini, la‘l toshlari, Xorazmning qimmatbaho feruza toshiga ishlov berilib, dunyo bozoriga sotuviga chiqarilgan. O‘rta Osiyo oltini, la‘li, qimmatbaho toshlariga Eron, Xitoy, Hindiston, Misir, Mesopatamiya singari mamlakatlarda talab katta bo‘lgan. Bu esa savdo-sotiqning gullab yashnashiga sabab bo‘lgan. Xitoy O‘rta Osiyo zotdor otlari, rangli shishalari zargarlik mollari, la‘l va toshlariga e‘tibori kuchli bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoydan ipak, chinni idishlar, choy va boshqa mahsulotlar chet mamlakatlarga chiqarilgan. O‘rta Osiyodan Xitoyga turli xil gazlamalar, qo‘y terisi, qurol, qimmatli toshlar, otlar olib borilgan. Hindiston ip-gazlama, ziravor va dorivor mahsulotlar mushk-anbar kabi narsalar keltirilgan. Hozirgi kunda Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati jahon jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

YUNESKO Bosh konferensiyasining XXIV sessiyasi 1989-1997 yillarga mo‘ljallangan «Ipak yo‘li-muloqot yo‘li» deb nomlangan keng ko‘lamdagi tadqiqot ishlarini amalga oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilingan. Shu qaror asosida tuzilgan ekspedisiya O‘rta Osiyonong tarixiy taraqqiyoti jarayonini o‘rganish bo‘yicha katta tadqiqot ishlari boshlab yubordi. O‘zimizning tarixchi olimlarimiz va dunyo olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Lekin bu o‘rganishimiz dengizdan bir tomchiday gap bo‘lmoqda. Shu boisdan biz ko‘proq buyuk ipak yo‘li bo‘yicha o‘rganishimiz va u borada ko‘proq ilmiy izlanishlarni olib borish kerak. Xulosa qilganimizda Ipak yo‘li Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarda va ayni zamonda bu yo‘l dunyo xalqlari bilan tinchlik, totuvlik, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik rishtalarini bog‘lagan yo‘l bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘li faoliyati davrida Sharq va G‘arb mamlakatlarini birlashtirgan qit‘alarga ko‘prik bo‘lib, insoniyat hayotida juda katta ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan nodir va noyob ulkan karvon yo‘li bo‘lgan.

Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, Shimoliy Ustrushona aholisi eramizning III-IV asrlaridayoq o‘troq hayot kechirishgan va dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Ilk o‘rta

asrlarda asosiy suv havzalari Zominsuv, Achchisuv va Pishag‘or daryolari bo‘lgan, suv tepaliklarga rishtalar orqali kanallardan chiqarilgan. Mamlakatda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo yaxshi rivojlangan, shaharchilik madaniyati rivojlanib borgan, yong‘in sajdagohligi esa aholi diniy qarashlarida muhim rol o‘ynagan. Buyuk Ipak yo‘lining karvon savdosi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida alohida o‘rin tutgan.

Ustrushonada davlat boshlig‘i bo‘lgan shohlar «afshin» deb atalgan. Afshinlar sulolasining faoliyati 893-yilda mamlakat Somoniylar davlatiga qo‘shilgandan so‘ng tugadi. Tarixchilar «Afshin» nomini ko‘chmanchi turkiy xalqlarning kelishi bilan bog‘laydilar.

Yunon tarixchilari bu hudud aholisini odatda «vahshiylar» deb atashgan. Kvint Kursiy Rufus mamlakatning asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan Kiropolni yunon-makedoniyaliklardan himoya qilgan «Mamak qabilasi» haqida yozgan. I.V. Pyankov esa vohaning markazi Kiropol bo‘lgan butun aholini «mamaklar» deb atagan.

Aftidan, mamaklar viloyatning qadimiy aholisi tarkibiga kirgan qabilalardan biri bo‘lib, keyinchalik o‘zaro yaqin qabilalarning umumiy nomiga aylangan va eng qadimgi xalqini shakllantirgan. Ushbu ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Ustrushona davlatida mahalliy va davlat boshqaruvi mamaklar qo‘lida bo‘lgan. Arxeologlar Nurtepa shahrining madaniyatini mamaklarga xos madaniyat deb tan olishadi.

Er.avv. II-I asrlarda vohada Qang‘ davlatining shakllanishi davrida Kangg‘ar sharqdan, Sarmatlar g‘arbdan, Usunlar esa Shimoliy Tyan-Shan va Oloy tog‘laridan kelgan. Ayniqsa, Xunlar davrida qabilalarning o‘zaro aralashuvi kuchaygan.

Er.avv. II-I asrlarda turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar Sirdaryoning o‘rta qismiga va shimoliy hududlariga joylashgan. Sog‘diyabon aholining turklashtirilishi sababli turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar ko‘pchilikni tashkil qila boshlagan.

Keyingi davr VI-VII asrlarda Sirdaryo vohasiga ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelishi bilan bog‘liq bo‘lib, Klyashtorniyning fikricha, VII asr o‘rtalarigacha bu hududda Bijanak (K. Shoniyozov ularni Bijanak deb ataydi) qabilalari ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynagan.

VI-VIII asrlarda Turkiy xoqonlik davrida turkiy xalqlar yashaydigan etnoterritoriyalar kengaygan. VIII-IX asrlarda Qorlox va O‘g‘uz qabilalari Sirdaryo vohasiga kirib kelishgan. Sirdaryoning o‘rta qismida, xususan Mirzacho‘lda O‘g‘uz ko‘chmanchi qabilalari yetakchi mavqega ega bo‘lgan. O‘g‘uzlar Buyuk Ipak yo‘li savdosida muhim rol o‘ynab, o‘z xavfsizligini ta‘minlash, karvonlarga xizmat ko‘rsatish va chorvachilik mahsulotlari bilan ta‘minlashgan.

Eramizning XI asrida qipchoqlar Sirdaryoning o‘rta qismida to‘liq o‘rnashib, Bijanak, Arg‘u, Tuxsi va O‘g‘uz etnik elementlarini o‘z ichiga olgan etnik guruhni shakllantirishgan.

Bu guruhlar ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynab, Markaziy Osiyoning etnik birlashmalari va siyosiy tuzilmalariga ta’sir o‘tkazgan.

XIII asr boshlarida Xorazmshohlar qipchoqlar bilan to‘qnash kelgan. Xorazmshoh Muhammad 1215-yilda qipchoqlarga katta yo‘qotish yetkazib, ularni Sirdaryoning shimolidagi sahrolarga chekinishga majbur qilgan.

Bugungi kunda o‘zbek xalqining etnogenezi bronza davrining so‘nggi bosqichiga borib taqaladi, deb tan olinadi. Akademik Karim Shoniyozov o‘zbek xalqining IX-X asrlarda shakllanganini aytgan.

Foydanilgan adabiyotlar.

1) Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.

2) Қудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.

3) Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.

4) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.

5) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.

6) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

7) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

8) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.

9) Davron o‘g‘li, A. D. (2025). O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O‘RGANILISHI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.

10) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.

11) Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

12) Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

13) Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

14) Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.

15) Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африкийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.

16) Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

17) OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

18) Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

19) Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.

20) Ne‘matov, R. (2023). ILK O‘RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI. *Interpretation and researches*, 1, 21.

21) Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.

22) Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. *American Journal of Philological Sciences*, 5(02), 10-16.

23) Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.

24)Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 377-382.

25)BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

26)Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, (3 (18)), 151, 312.

27)Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

28)Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАҒАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

29)Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.

30)Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO'CHMANCHILIK FENOMENINING O'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

31)Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

32)Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).

33)Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).

34)Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO'LNI O'ZLASHTIRISH VA KO'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

35)Galiyev, S. (2024, September). O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

36)Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.

37)Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O 'ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 157-163.

38)Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.

39)Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.

40)Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.

41)Шодмонкулова, М. (2025). ҒАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.

42)Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.

43)Шодмонкулова, М. (2025). ЎРТА СИНФ-МУЛҚДОРЛАР СИНФИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 152-156.

44)Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.

45)Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.

46)Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ В НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

47)Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.

48)Mavlyanov, U. (2022). ABOUT "THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.

49)Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.

50)Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ

БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.

51)Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.

52)Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОЙИ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.

53)Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.

54)Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.

55)Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.

56)Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. *Academy*, (5 (44)), 48-49.

57)Исроилов, М. Я. (2015). Влияние использования Интернет-ресурсов на повышение эффективности обучения истории. *Наука, техника и образование*, (5 (11)), 147-148.

58)Исроилов, М. (2024). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ТАРИХИЙ ПОЙДЕВОР ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 419-423.

59)Исроилов, М. Я. (2016). РОЛЬ РАЗЛИЧНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБРЯДОВ И ЦЕРЕМОНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛОМ И ВОЗРАСТОМ, В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ И ЭТНОГРАФИИ УЗБЕКОВ. In *Люди, культуры, пространство: социокультурная динамика мира Евразии* (pp. 231-235).